

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
DSc, professor (O'zbekiston)
Sirojiddin Xo'jaqulov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Turobov Abdurahim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
DSc, professor (O'zbekiston)
Muhammadiyev Ahadjon
DSc, dotsent (O'zbekiston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Nurova Gulchehra
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayev Normuhammad
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurova Go'zal
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI


1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122




Rustamjon JABBOROV

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi,
filologiya bo'yicha falsafa doktori
E-mail: r_jabborov1980@mail.ru
ORCID ID: 0009-0006-6236-1655

BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

For citation: Jabborov Rustamjon. THE CONTRIBUTION OF THE BABURIDS TO THE DEVELOPMENT OF THE TURKISH LANGUAGE AND LITERATURE. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412148>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Hindistonda 1526-1858-yillarda hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi vakillarining bu hududda madaniyat, turkiy til va adabiyot rivojiga qo'shgan hissalarini haqida hikoya qilinadi. Maqolada Boburiylar saltanatida turkiy tilning o'rni, boburiy hukmdorlar tomonidan turkiy til va adabiyot rivoji yo'lida qilingan xatti-harakatlar ko'rsatib o'tiladi. Maqolada, shuningdek, boburiylar g'amxo'rliqi ostida ijod qilgan turkiy adabiyot namoyandalari haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Hindiston, Navoiy, Bobur, boburiylar, turkiy til, adabiyot, devon, adabiy muhit, nazira, tazkira, adabiy ta'sir, shoir, asar

Рустамжон ЖАББОРОВ

учёный секретарь Центр исламской цивилизации в Узбекистане,
доктор философии (PhD) по филологии
E-mail: r_jabborov1980@mail.ru
ORCID ID: 0009-0006-6236-1655

ВКЛАД БАБУРИДОВ В РАЗВИТИЕ ТЮРКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о вкладе представителей династии Бабуридов, правившей Индией с 1526 по 1858 год, в развитие культуры, тюркского языка и литературы в этом регионе. В статье показана роль тюркского языка в династии Бабуридов, действия, предпринятые правителями Бабуридов для развития тюркского языка и литературы. В статье также представлена информация о представителях тюркской литературы, творивших под покровительством Бабуридов.

Ключевые слова: Индия, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабури, Бабуриды, тюркский язык, литература, диван, литературная среда, назира, тазкира, литературное влияние, поэт, произведение.

Rustamjon JABBOROV

Scientific Secretary of the Center of Islamic Civilization in Uzbekistan,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

E-mail: r_jabborov1980@mail.ru

ORCID ID: 0009-0006-6236-1655

THE CONTRIBUTION OF THE BABURIDS TO THE DEVELOPMENT OF THE TURKISH LANGUAGE AND LITERATURE

ABSTRACT

This article tells about the contribution of the representatives of the Baburid dynasty, which ruled India from 1526 to 1858, to the development of culture, the Turkic language and literature in this region. The article shows the role of the Turkic language in the Baburid dynasty, the actions taken by the Baburid rulers for the development of the Turkic language and literature. The article also provides information about the representatives of Turkic literature who created under the patronage of the Baburids.

Keywords: India, Navoi, Babur, Baburids, Turkic language, literature, divan, literary environment, nazira, tazkira, literary influence, poet, work.

Kirish

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) Hindistonni zabt etgunga qadar ham bu hududda turkiy sulolalar mavjud bo'lgan. Xususan, hind tuprog'ida turkiy sulolalardan g'aznaviylar, qutbshohlar, Dehli sultonlari vakillari yuz yillar davomida hukmronlik qilishgan. Amir Temur 1388-yilda Hindistonni zabt etgach, bu mamlakatning katta qismi Boburdan ancha avvalroq temuriylar imperiyasi tarkibida bo'lgan [Salma Ahmed, 1988:56-57].

Markaziy Osiyo olimlari orasida Hindiston mavzusiga qiziqish XI asrlardayoq boshlangan, 1030-yildayoq Abu Rayhon Beruniy "Tahqiq ma li-l-Hind min ma'qula, maqbula fi-l-aql av marzula" ("Hindlar haqida aqlga sig'adigan va sig'maydigan ma'lumotlar tahlili") yoxud "Hindiston" asarini yozgan edi [Абу Рейхан Бируни, 1995: 736].

Alisher Navoiy o'ziga ustoz deb bilgan hamsanavis shoir, ulug' mutafakkir Xusrav Dehlaviy (1253-1325) ham garchi turkiy lochin ulusiga mansub bo'lgan, garchi u o'z asarlarini forscha yozgan bo'lsa-da, o'zining turkiy ajdodlari bilan faxrlangan va juda katta ehtimol bilan bu tilni yaxshi va she'rlar ham bitgan. Ijodkor o'z kelib chiqishi borasida faxr bilan: "Turkiyi Hindustonam, hindaviy go'yam chu ob" ("Men Hindiston turkiylaridanman, ammo hind tilini suvday bilaman"), deb yozgan edi.

Temuriylar davridayoq Xusrav Dehlaviyning asarlari Movarounnahr va Xurosonda alohida qadrlangan. Boysunqur Mirzo buyrug'iga asosan Hirotda Dehlaviyning 12 ming bayti alohida to'plam tarzida jamlangan [Низамутдинов, 1969: 23].

Navoiy o'zining "Xamsa" dostoni va "Saddi Iskandariy" xotimasida ham bir guruh taniqli shoirlar tushida uni katta bir bog'da kutib olishgani, shu anjumanga borishda, Hasan Dehlaviy unga hamrohlik qilganini, shoirlarning huzuriga olib borib, ularga tanishtirganini yozadi [Алишер Навоий, 1993: 36].

Ma'lumki, Navoiyning forsiy devoni 4704 baytni tashkil qiladi. Navoiyning forsiy devonini tadqiq qilgan mutaxassislar uning asarlari fors she'riyatida mashhur bo'lgan uchta yo'nalishdan biri – sabkiy hindiy (hind yo'nalishi)ga yaqinligini ta'kidlashadi [Хумоюнфаррух, 1337: 1142].

Turkiston zaminidan Hindistonga borib, u yerda kamol topgan shoirlardan yana biri Badriddin Chochiydir. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar juda oz bo'lganligi tufayli Badriddin Chochiyning qaysi yili tug'ilganligi aniq ma'lum emas. U asosan Toshkentda yashagan, uning 1332-yillar atrofida Toshkentdan Hindistonga borgani va umrining oxirigacha (1344) u yerda yashaganligi haqida manbalarda keltirilgan. Badriddin Chochiyning Toshkentni tashlab Hindistonga ketishiga, bu davrdagi siyosiy va ijtimoiy ahvol sabab bo'lgan. Dastlab ona yurtida o'z asarlarini turkiy tilda yozgan Badriddin Shoshiy Hindistonga kelib, forsiyda ijodini davom ettirgan [Низамутдинов, 1969: 25].

Ya'ni Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda yangi davlatga asos solishidan avval ham bu zaminda bir qancha turkiy sulolalar hukmronlik qilgan, turkiy qavmlarga mansub shoirlar, allomalar bu zaminda yashab ijod qilishgan. Hind diyorida 330 yildan ortiqroq davom etgan Boburiylar davri bu mamlakatda turkiy madaniyat, til va adabiyot rivoji uchun yangi sahifa ochganini alohida ta'kidlash o'rinli.

Asosiy qism

Bobur va Boburiylar davrida Hindiston adabiy muhitida turkiy tilning mavqeyi sezilarli darajada oshdi. Bobur umrining so'nggi qadar ushbu tilda ijod qilib, o'zining betakror g'azallari va "Boburnoma" sini bitdi.

Bobur qo'shinlari 1526-yilda Panipat jangida o'zidan bir necha baravar ko'p bo'lgan Ibrohim Lo'di qo'shinlarini tormor qilgach, bu davlatning katta qismini qo'lg'ga kiritadi. U katta ehtimol bilan Movarounnahr va Xurosondagi sara kitoblarni ham ham o'zi bilan Hindistonga olib kelgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, uzoq muddat Temuriylar saroyida faoliyat ko'rsatgan Xondamir, Bayramxon, Xoja Kalon singari amirlar, shoir va tarixchilarning Hindistonga borib qolishi bevosita Alisher Navoiy asarlari, uning ijodiy merosi namunalarini bu diyorga kirib borishida muhim o'rin tutgan [Қамар Раис, 2007: 53].

Zahiriddin Muhammad Boburdan so'ng birin-ketin taxtga o'tirgan uning ayrim farzandlari, nabiralari ham turkiy tilda ijod qilishdi, bu tildagi adabiyot vakillarini har tomonlama rag'batlantirib kelishdi.

Boburdan so'ng saltanat taxtiga o'zirtgan Humoyun Mirzo (1508-1556) xuddi otasi singari shoirtabiat inson bo'lgan, fiqh, astronomiya, jo'g'rofiya, musiqa ilmi haqida risolalar bitgan. devon tartib qilib, dilbar g'azallar va ruboiylar bitgan. Uning bir ruboiysida:

Do'st yodi-la har tuningda xurram o'ltir,

Yor vasli-la har kuningni navro'z ayla...

- satrlari uchraydiki, bu Navoiyning "har tuning qadr o'lubon, har kunung o'lsun Navro'z" misrasini esga soladi. Shu birgina ruboiy ham Humoyunning Navoiy ijodidan bahramand bo'lganidan yaqqol dalolat beradi [<https://kh-davron.uz/kutubxona>]

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Navoiyning o'ziga xos izdoshlaridan biri usmoniy davlatida Kotibiy taxallusi bilan she'rlar bitgan Saydi Ali Rais edi [Eraslan, 1968: 42]. U davlat ishlari bilan ma'lum muddat Hindistonda, Boburiylar saroyida bo'ladi va yerda chig'atoy tili va adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganadi. O'zi ham shu tilda Navoiyga ergashib, dilbar g'azallarni bitadi. Shu bois u Hindistonda "Navoiyi soniy", ya'ni "Ikkinchi Navoiy" nomi bilan taniladi. Shu misolning o'ziyoq boburiylar saroyida Navoiy ijodi yetarlicha o'rganilganidan dalolat beradi.

Hindistonda Bobur va Humoyun saroyida uzoq yillar xizmat qilgan shoir va davlat arbobi Bayramxon g'azallarida ham turkiy malohat, Navoiyga xos jozibani payqash mumkin. Muhammad Bayramxon 1500–1505-yillar orasida dunyoga kelgan. U turkman sipohiyalaridan bo'lib, Boburning o'g'li Humoyun mirzo davrida harbiy sarkarda va shahzoda Akbarning otalig'i (regent) qilib tayinlangan.

Humoyundan so'ng hokimiyat tepasiga chiqqan Akbar davrida Bayramxon davlatning muhim siyosiy yumushlarini bajargan va eng nufuzli arbobga aylangan. Lekin ichki nizolar tufayli Bayramxon 1560-yilda davlat ishlaridan chetlatilgan va 1561-yilning 31-dekabrida qatl etilgan. Bayramxon o'zining siyosiy faoliyati bilan birga badiiy ijod bilan shug'ullangan, forsiy va turkiy tillarda barobar she'rlar yozgan. Uning ana shu har ikkala tilda yozilgan devonlari bor.

Shoir turkiy devonining asosiy qismini ishqiyoq g'azallar tashkil qiladi. Uning asarlari turkman va o'zbek xalqlarining ma'naviy mulqiga aylangan

Labikim, noz ila ikki labi vasfin ado qilg'ay,

Masiho bo'lsa ham jon bergay ul nozik adolarg'a [Асрлар садоси, 1981: 31]

Bayramxonni ayrim adabiyotshunoslar turkman mumtoz adabiyoti vakili deb hisobalasa-da, uning ijodi, tili bevosita mumtoz o'zbek adabiyotiga yaqin. Juda ko'p g'azallarida Lutfiy, Navoiy, Bobur g'azallariga o'xshashlikni ilg'ash mumkin. Ayniqsa, bayramxon o'z g'azallarini yozishda Alisher Navoiy ijodidan ilhomlangani aniq. Navoiyda o'qiymiz:

Ey hayotim naqdi la'li xuradoning sadqasi,
 Javhari jonim aqiqi durfishoning sadqasi.
 Ko'zlaring gar notavondur, sadqa vojibdur anga,
 Yuz meningdek notavon har notavonning sadqasi [Алишер Навоий, 1988, 363].

Endi Bayramxonning xuddi vazn va radifda bitilgan g'azalidan olingan parchaga e'tibor qarataylik:

Joni shirinim u la'li nuqtadoning sadqasi,
 Vah, ne bir jon, balki yuz jon bo'lsa oning sadqasi
 Sen dag'i bir no'shlab ishqida mendek zorsen,
 Zor ko'nglunga tarahhum ayla joning sadqasi [<https://wikisource.org/wiki>]

Ko'rinib turganidek, bu yerda nafaqat vazn, radif va qofiya, hatto mazmun ham deyarli takrorlanmoqda. Har ikki parchada ham oshiq (lirik qahramon) o'z jonini sevikli yoriga mamnuniyat bilan sadqa qilishga hozirligini ifoda etmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Hindiston adabiy muhitida asosan forsiy til, shuningdek, hindiy va urdu tillari yetakchi hisoblansa-da, bu hududda yashagan turkiygo'y shoirlar aynan Navoiyga ergashib, u ijod qilgan chig'atoy turkchasi yoxud eski o'zbek tilida she'rlar bitishgan [Bilkan Ali Fuat, 2001: 51].

Rampurdagi "Xudobaxsh" kutubxonasida Boburning o'g'li Komron Mirzoning 964/1556-yilda Mahmud bin Is'hoq ash-Shahobiy al-Hiraviy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma devoni saqlanadi. Unda Komron Mirzoning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan she'rlari joy olgan. Bu nusxaning yana bir ahamiyati, unda yigirmadan ortiq davlat arboblari muhrlari bosilgan. Ular orasida Jahongir Mirzo va Shohjahon dastxatlari ham uchraydi.

Komron Mirzo she'rlari badiiy mahorati, tilining ravon va soddaligi, ajoyib lirik obrazlarni hassoslik bilan ifodalashi jihatidan Bobur lirikasini eslatadi. Uning butun merosida otasi – Bobur ijodiy ruhi balqib turadi. Ana shu ma'noda Komron Mirzo Bobur lirikasidagi eng yaxshi an'analarni davom ettirgan, uni ham mazmun, ham badimiy jihatdai boyitgan san'atkor sifatida maydonga chiqadi. Otasi singari u ham Navoiy ijodiga katta hurmat ehtirom bilan qaragan. Navoiyning g'azallaridagi latofat, so'z san'atlaridan o'z ijodida foydalangan:

Gulshanda sahar vaqti, men erdimu jonona,
 Guldek yuzi shavqidin bulbul kibi afsona [<https://kh-davron.uz/kutubxona>]

Gulzor qo'ynidagi sevisgnlarning totli visol onlari albatta Komron Mirzoga qadar juda ko'p shoirlar ijodida she'rga solingan. Jumladan, Navoiy o'zining "Favoyid ul-kibar" dostonida bu haqda o'ziga xos benazir g'azal bitgan:

O'tgan kecha men erdimu ul siymtan erdi,
 Gulshan to'rida maskanimiz bir chaman erdi.
 Gulbin aro ikki kishiga sig'qucha manzil,
 Bulbul bila guldek ikimizga vatan erdi [Алишер Навоий, 1990: 610].

Bu g'azaldan Bobur ham yaxshi xabardor bo'lgan va uni "boshtin oyoq bir hikoya manzum bo'lubdur" deb baho bergandi. 36 varaqdan iborat qo'lyozma devoni saqlanadi. Askariy Mirzoning turkiy she'rlarida Alisher Navoiy ijodiga havasmandlik yaqqol sezilib turadi:

Oshiqi dilxastani gar dilbari shod aylagay,
 Oncha bordurkim, buzug' olamni obod aylagay... [Жўрабоев О, 2025: 50]

Boburning yana bir o'g'li Askariy Mirzo ham tab'i nazm sohibi bo'lgan shahzodalar sirasiga kiradi. Uning hozirgacha yagona devoni Turkiyaning Istanbul shahridagi Sulaymoniya kutubxonasida 1668 raqami ostida

Bobur ijodidan ruhlanib uning she'riy an'alarini davom ettirgan shunday shoirlardan yana biri olim va mohir mutarjim Mirzo Ali Baxt Azfariydir. Azfariy o'zbek adabiyotining Navoiy kabi ulkan namoyandalari va ularning asarlaridan ruhlanib kitoblar yaratgan. U turli sohalarga oid o'n beshdan ortiq asarlar bitgan. Bu asarlar o'zbek adabiyoti vakillarini Hindistonda targ'ib etish ishida ham alohida o'rin tutgan. Azfariy turkiy, fors va urdu tillarida yozgan she'rlaridan uch devon tuzib, "Voqioti Azfariy", "Savonihoti Azfariy" tarixiy-biografik asarlarini yaratgan; "Favod al-mubtada", "Farhangi turkiy", "Risolai qabriya" singari tilshunoslikka oid kitoblar yozgan.

Azfariy Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Boburning “Aruz risolasi”ini forschaga o‘g‘irgan. Jumladan, Boburning “Aruz risolasi”ni u fors tiliga ham nazm, ham nasr yo‘li bilan o‘g‘irgan. “Aruzzoda” deb nomlangan bu tarjimalarning ikkita nusxasi Hindiston qo‘lyozma fondlarida saqlanadi. Nasriy nusxada Azfariy quyidagilarni xabar qiladi: “Binobarin, uning “Aruzi turkiy” kitobidan muntaxab etib, fors tiliga tarjima qildim, farzand o‘z otasining uyidan biror narsa olishi mumkin, shuning uchun uni o‘g‘ri hisoblab, aybga sanamasinlar”.

Madoras davlat Sharq qo‘lyozmalari kutubxonasida saqlanayotgan she‘riy tarjima 1836-yili Mahmudali Said valadi Hofiz Muhiddin Husayn tomonidan ko‘chirilgan. Asar muqaddimasida “Aruzzoda”ning yaratilish sababi va tarixi quyidagicha keltiriladi:

“Endi mehribonlar va do‘stlar oldida (kitob) yozishingning sababini aytgin. Hazrat Bobur asarlaridan sirli “Aruz”ning ushbu nusxasini ko‘rdim. Uni butun fikrim bilan berilib o‘qidim. Unda yaxshi tartib bilan yozilgan sher ilmi bor bo‘lib, u kitob turkiyda edi. Kamina turkiydan bahramand edim... forslar uchun ham tushunarli bo‘lsin deb, uni qisqartirib forshalashtirishni lozim topdim...”

Azfariy o‘z tarjimasini Bobur “Aruz” risolasining farzandi, ya‘ni “Aruzzoda” deb ataydi. Bu bilan Bobur va uning asariga bo‘lgan chuqur hurmatini ta‘kidlaydi.

U Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini ham fors tiliga o‘girib, “Farhangi Azfariy”, “Nasabi turkiy”, “Nasabi turkiyi chig‘atoyi”, “Mezoni turkiy” asarlarini yaratadi.

Haydarobodagi “Salarjang” muzeyida XVII asrda ko‘chirilgan yana bir qo‘lyozma Hindistonda boburiylar davrida yashagan turkiyzabon shoir Forig‘iy qalamiga mansub. Qo‘lyozma Forig‘iyning o‘zbek va fors-tojik tillarida bitilgan she‘rlarini qamraydi. Forig‘iy Hindistonda Akbar va Jahongir saltanati zamonida, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, olim va adiblarning buyuk homiysi zabardast shoir va mohir mutarjim, Xoni Xonon nomi bilan mashhur Abdurahim (Bayramxonning o‘g‘li)ninig shogirdi bo‘lgan.

Forig‘iy g‘azallaridan birida o‘z zamonasida qadr topmayotganligidan shunday zorlanadi:

Forig‘iy gar bo‘ldi benomu nishon ayb etmangiz,

Lavhi mahfuz ichra ham nomu nishonim yo‘qturur [Xasano‘v, 1983: 50-53].

Forig‘iy g‘azallarida Navoiy g‘azallaiga bitilgan naziralar ko‘plab uchraydi. Misol tariqasidan avval Navoiyning ushbu mashhur baytini eslaylik:

Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

Husn mulkida seningdek shohi zolim ko‘rmadim,

Ishq ko‘yida o‘zimdek notavone topmadim.. [Alisher Navoiy, 1988: 236].

Oshiqning ma‘shuqa ishqidan bu qadar shikoyati Forig‘iy g‘azallarida aynan shu ko‘rinishda ham uchraydi:

Kelki, sendin o‘zga yoru mehribonim yo‘qturur,

Sensiz, ey oromi jon, jismimda jonim yo‘qturur.

Ishq ko‘yida nechakim mahrami roz istadim,

G‘amdin o‘zga mahrami rozi nihonim yo‘qturur [Xasano‘v, 1983: 50-53]

Forig‘iy Hindistonda Bobur, Humoyun, Bayramxon, Abdurahim Xoni Xonon an‘analarini davom ettirib, turkiy tildagi adabiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan betakror san‘atkor shoir ekanligi uning ijodidan yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Forig‘iy asarlarida ham Alisher Navoiy ijodidan ta‘sirlanish unsurlarini yaqqol sezish mumkin. Chunki uning ijodi, uslubi, tili Navoiyga yaqinligi bildan ajralib turibdi.

Forig‘iy qalamiga mansub bo‘lgan misralarga e‘tibor qaratamiz:

Bir parining furqatidin jismu jong‘a tushti o‘t,

Aqlu dinu dil, tamomi xonumong‘a tushti o‘t.

...Diyda, ul bir lola yuzlig‘ moh paykar furqati,

Oncha kuydurdi seni, Hindustong‘a tushti o‘t [Xasano‘v, 1983: 50-53]

Bu g‘azal o‘zining qofiya va radifi. She‘riy san‘atlarning ishlatilishi, umumiy mazmuni nuqtai nazaridan Alisher Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 86-g‘azal misralarini esga soladi:

Lolazor ermashi, ohimdin jahong‘a tushti o‘t,

Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmong‘a tushti o‘t.

Ey Navoiy, bilki ohe chekmisham beixtiyor,

Desalarkim, beshayi Mozandarong'a tushti o't [Alisher Navoiy, 1988:242]

Hatto har ikki g'azalning so'nggi misralarida oshiqning o'tli ohi, mahshuqaning hajri, Mozandaron va Hindiston singari joy nomlarining ishlatilishi ularning bir-biriga hamohang ekanini, aniqrog'i Forig'iy Navoiyning izdoshi ekanini, Hindistonda uning an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirganini ko'rsatadi.

Rampur Razo kutubxonasida saqlanayotgan yana bir devon Diyda taxallusi bilan ijod etgan o'zbek shoiriga tegishli. Diyda devoniga shoirning g'azallar, ruboiylar va qator fardlari kiritilgan. Afsuski, qo'lyozma tugallanmay qolganligi tufayli, uning ko'chirilish tarixi hamda kotibi haqidagi ma'lumotlar saqlanmagan. Ammo qo'lyozma xati, bezagi va ayrim xususiyatlariga qarab, devonni XVII asrga mansub deb taxmin qilish mumkin.

Shu bilan birga, Boburiylar davrida Markaziy Osiyodan borgan o'nlab shoirlar, olimlar va mutafakkairlar boburiylar saroyida va Hinlistonning turli hududlarida yashab ijod qilishgan. Ular qatorida Qozi G'azanfar Samarqandiy, Mavlon Said Turkistoniy, Mirzo Muflim Samarqandiy, Me'roj Toshkandiy, Hofiz Ko'ykiy (Ko'hakiy), Doiy Andijoniy, Sahmiy, Saqo Chig'atoyiy, Chandu Buxoriy, Mir Abdullo Termiziy singari shoirlarni sanab o'tish mumkin [Низамутдинов, 1969: 114-116]. Ular turkiy va forsiy asarlari bilan Hindistondagi adabiy muhit rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan.

Xulosa

Boburiylar aslida rasman temuriylar sulolasining davomchilari bo'lsa-da, ularning hukmronligi dunyo tarixchilari tomonidan alohida davr sifatida o'rganiladi.

Boburiylar Hindistonda mahalliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarni hurmat qilish barobarida Hindistonga yangi madaniyatni olib kirishadi. Xususan, boburiylar davri tasviriy san'atida mahalliy va temuriylar an'alarining uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzeb singari boburiyodalardan ham mamlakatda ilm-fan, san'at va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shishgani uchun buyuk hukmdorlar deyiladi. Boburiylar davri tasviriy san'atida hukmdorlar siymosi alohida o'rin tutadi. Boburning bizga ma'lum bo'lgan portretlari, shuningdek, boshqa hukmdorlarning suratlarini ham aynan ana shu davr san'atining bebaho durdonalari sanaladi.

Boburiylar sulolasi davrida ilm-fanga katta e'tibor qaratilgan. Hukmdorlar ilm-fan rivojiga turtki berib, olimlar va fuqarolar uchun imkoniyatlar yaratgan. Ularning davrida ta'lim muassasalari barpo etilgan, ularda turli fanlarning rivoji uchun sharoitlar hozirlangan. Ilm-fanning turli sohalarida katta yutuqlarga erishilgan.

Birgina Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari Sharqda tarix, jo'g'rofiya, siyosatshunoslik va boshqa sohalarida muhim manba sanaladi. Shuningdek, Bobur tilshunoslik, din va tasavvuf, adabiyotshunoslik singari yo'nalishlarda ham faoliyat olib borgan. Ilm-fan va madaniyatga homiylik qilgan.

Boburiylar davrida hind, fors va turkiy tillardagi adabiyot ham jadal rivojlangan. Bobur, Humoyun, Komron singari sulola vakillari turkiy tilda devonlar yaratishgan, qator asarlar bitishgan. Akbar, Shohjahon, Avrangzeb singari hukmdorlar ham temuriylar an'alarini davom ettirgan holda, o'z saroylarida Movarounnahr, Xuroson va Erondan olimlar, shoirlar, xattot va musavvirlarni chorlashgan. Bu davrda ko'plab Sharq adabiyoti durdonalari kitobat qilingan. "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning qator asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si fors va hind tillariga tarjima qilingan.

Boburiylar har doim o'z an'alariga, madaniy merosga, ona tillariga sodiq qolishgan. Manbalarga ko'ra, boburiy hukmdorlar har doim eng ishonchli mulozimlar va oila a'zolari davrasida yig'ilishlarni turkiy, eski o'zbek tilida olib borishgan. O'zbek tilining turli lug'atlari yaratilgan.

1858-yilda Britaniya hukumati tomonidan Hindistonning zabt qilinishi bu sulola hukmronligiga batamom barham berdi. Boburiylar xonadonining deyarli barcha vakillari qirib tashlandi. Biroq, Hindiston zaminida ular yaratib qoldirgan betakror madaniyat va san'at namunalari, betakror sivilizatsiya durdonalari boqiy qoldi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Abu Reyxan Biruni. Indiya / Otv. red. V. Belyaev. – Moskva: Lodomir, 1995. – 736 s.
2. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. MAT 20 tomlik, T7. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 39.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT, 20-tomlik. T17. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 243.
4. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT, 20-tomlik. T11. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 36.
5. Alisher Navoiy. Qaro ko‘zum. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidlagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – B. 363.
6. Asrlar sadosi: Mumtoz o‘zbek adabiyotidan namunalar. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1981. – B.31.
7. Bilkan, Ali Fuat (2001). Hindistan‘da Gelişen Türk Edebiyatı. – Ankara: KB Yay. 2001. – S. 5
8. Eraslan K. Seydi Ali Reis'in Çağatayca Gazelleri" // TDED. – İstanbul, 1968. – S.42.
9. Humoyunfarrux A.. Dasturi çomei zaboni forsī / A. Humoyunfarrux. – Tehron: Aliakbar, 1337. – S. 1142.
10. Jo‘raboev O. Askariy Mrzo devoni qo‘lyozmasi va o‘zbekcha she‘rlari // “Adabiy meros” jurnali, 2025 yil №4 son, B.50.
11. Nizamutdinov I. Iz istorii sredneaziatsko-indiyskix otnosheniy. – Tashkent: Uzbekistan. 1969. – S. 23
12. Qamar Rais. Bobur shaxsiyati va she‘riyati. – Andijon:Andijon nashriyot-matbaa OAJ, 2007. – B. 53.
13. Salma Ahmed Farooqui. A Comprehensive History of Medieval India. – Delhi: Pearson Education India, 1988. – P. 56-57.
14. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/humoyun-mirzo-gazallar-va-ruboiylar-suyimaganiyeva-otameros-baytlar.html>

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALNING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru